Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish .....	1047
<b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении .....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari .....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari .....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati .....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari .....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
<b>Икромова Ханифа Одилевна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari .....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities .....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISHNING KLASSIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI



**To'xsanov Qudratillo Nozimovich**

DSc, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası professori

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada islohotlarning hozirgi sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faliyatini soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash tizimining amaldagi holati tahlil qilingan. Istiqbolda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida yanada qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik subyektlari, soliq tizimi, soliq imtiyozi va preferensiyalari, maxsus soliq rejimi, soliq stavkasi, soliq mexanizmi.

**Abstract:** The scientific article analyzes the current state of the system of supporting the activities of business entities operating in economic sectors through tax incentives in the current conditions of reforms. Proposals and recommendations were made for the development of the mechanism of further support for the activities of business entities using taxes.

**Key words:** business entities, tax system, tax relief and preferences, special tax regime, tax rate, tax mechanism.

**Аннотация:** В статье проведен анализ современного состояния системы обеспечения предпринимательской деятельности, осуществляющих в отраслях экономики, при помощи налоговых льгот в условиях экономических реформ. В заключении научной статьи изложены предложения и рекомендации по разработке механизма по поддержке деятельности субъектов предпринимательства при помощи налогов.

**Ключевые слова:** субъекты предпринимательства, налоговая система, налоговые льготы и преференции, специальный налоговый режим, налоговая ставка, налоговый механизм.

## KIRISH

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan:

- optimal soliq tizimi prinsiplari qatoriga betaraflik, iqtisodiy o'sish va samaradorlik, shaffoflik, byudjetga yetarlilik kabi prinsiplar kiritish zarurligi ilmiy asoslangan (EC, AICPA, ACCA, PPI);
- tadbirkorlik subyektlari foydasiga tushadigan jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash tarzidagi soliq yukini adolatli taqsimlash mexanizmiga asoslangan (IEM, Fransiya, ETPF, ZEW, Yevropa Ittifoqi);
- tadbirkorlik subyektlarining "yashirin daromadi" ko'lamini qisqartirishga qaratilgan ta'sirchan soliqqa tortishning mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan tabaqalashtirilgan korporativ va daromad solig'i stavkalari taklif etilgan (World bank);
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'lanayotgan soliqlarni to'lig'icha hudud ixtiyorida qoldirish orqali tadbirkorlik subyektlari uchun infratuzilma va qulay ishbilarmonlik muhitini yaxshilash isbotlangan (Swedish Institute for European Policy Studies, Shvetsiya);
- Koreyada "o'rtacha iqtisodiy rivojlangan", "past iqtisodiy rivojlangan" shtatlarda infrastrukturani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining aylanmasidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini qo'llash zarurligi asoslangan (The Korean Institute of Public Finance, Koreya);
- Xitoyda tadbirkorlik subyektlari to'laydigan soliqlarni chegaralash orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati past hududlarni rag'batlantirishga erishilgan (National University of Singapore, Singapur).



Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmi takomillashtirish juda murakkab vazifa bo'lib, hanuzgacha mazkur masalaning ilmiy jihatdan maqbul yechimi topilmagan. Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish sharoitida tadbirkorlar mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblashni soddalashtirish, raqamli iqtisodiyotni barpo etishda aloqa xizmatlarini soliqlar vositasida qo'shimcha rag'batlantirish, tabiiy boyliklardan unumli foydalanishda soliqlarning ta'sirini kuchaytirish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq munosabatlarida soliqqa tortishning klassik va zamonaviy nazariyalarini o'rganishda umumiy soliq nazariyalari hamda xususiy soliq nazariyalariga ajratish mumkin. Umumiy soliq nazariyalarida asosiy masala soliqlarning ahamiyati, vazifalari, xususiyatlari kabi soliq tizimining umumiy jihatlari tadqiq etilsa, (klassik soliq nazariyasi, J. Keyns nazariyasi, monetarizm nazariyasi, taklif iqtisodiyoti nazariyasi va boshqalar), xususiy soliq nazariyalarida esa soliqlarning tarkibi, soni va soliq stavkalari soliq tizimi elementlarining tarkibiy xususiyatlari haqidagi fikrlar mujassamlashgan. Ma'lumki, soliqlar turli qiymat obyektlariga nisbatan o'rnatilgani bilan asosan bir manbadan ya'ni daromadlardan to'lanadi. Shunday ekan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ko'plab soliqlar o'rniga shunday bir yagona soliq joriy etish hisobiga davlat byudjetini zarur mablag'lar bilan ta'minlash lozimligi borasidagi g'oya asosida yagona soliq nazariyasi vujudga keladi, rivojlandi va bugungi kunga kelib ko'plab mamlakatlar soliq amaliyotida qo'llanilib kelinmoqda.

Yagona soliqni joriy etish g'oyasi o'rta asrlardan e'tiboran ommabop hisoblangan, hattoki (XVIII-asrda Angliyada). Ayrim partiyalar yagona soliqni partiyaning asosiy shiori qilib olgan. Yagona soliq nazariyasi tarafdorlari yagona soliq o'rnatilgandan so'ng kambag'allik barham topishi, ish haqi oshishi, har qanday sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish o'sishi yuz berishini e'tirof etib soliqqa tortishning obyekti sifatida foydalanish maqsadida yer resursi, xarajatlar, ko'chmas mulk, daromadlar, kapital kabi predmetlarni taklif qilganlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda "Yagona soliq – bu bitta ya'ni maxsus soliq turi bo'lib, bunda aniq bir obyekti yoki bazasi soliqqa tortiladi. Yagona soliqning eng qadimgi turlaridan biri – bu yer rentasi hisoblanadi. Fiziokratlar maktabining asoschilaridan F. Kene ta'limotida "Sof daromad faqatgina yerdan kelishi e'tirof etiladi, bunda yer rentasi soliqqa tortishning yagona obyekti bo'lishi lozimligi qayd etilgan. U yagona va to'g'ri soliq obyekti kadastr asosida aniqlanishini taklif etib, yerdan keladigan daromadning 2/7 qismi miqdorida bo'lishini asoslab, boshqa barcha soliqlarni ortiqcha deb hisoblaydi"<sup>1</sup>. Shundan kelib chiqib "Barcha soliqlarning o'rniga yer egalaridan undiriladigan yagona soliq joriy etilishini taklif etadi. Yagona soliq nazariyasi haqidagi g'oyalarning negizida asosan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili yotishi e'tirof etiladi"<sup>2</sup>.

## TAHLIL VA ASOSIY NATIJADAR

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi shakllanishining ilk davrlaridan boshlab hozirga qadar samarali islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi o'laroq bugungi kunda nisbatan barqaror milliy soliq tizimi shakllanishiga erishildi.

Ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar muayyan vazifalarni amalga oshirish orqali amalga oshirilayotganini e'tirof etishimiz lozim bo'ladi. Chunki mamlakatimizda mustaqillikka qadar zamonaviy bozor talablariga mos keladigan soliq munosabatlari mavjud bo'lmagan.

Shu boisdan milliy soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida rivojlangan hamda rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi ilg'or tajribalaridan foydalanish, soliq va soliqqa tortish mexanizmidagi klassik hamda zamonaviy soliq nazariyalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilida soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukining tekis taqsimlanishi, imtiyozlarning asosliligi va shuningdek, turli kapital sig'imiga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi subyektlari uchun bir xil transaksion xarajatlar uchun shart sharoit yaratilishda namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliqning joriy qilinishi, soliq mexanizmini soddalashtirish imkoniyatiga tayangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulaylik sifatidagi vazifasining amaliy ifodasi hisoblanadi. Yagona soliq haqidagi nazariyada uning manbayini yangidan yaratilgan qiymatni qiymat ekvivalentida taqsimlovchi daromadlardan olinadigan soliqlarga tayanadi. Demak, yagona soliq tizimi avvalo, soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadidagi daromadlardan olinadigan soliqni joriy qilishga asoslanadi (1-rasmga qarang).

1 Кенэ Ф. Избранные экономические произведения. – М.: Соцэкгиз, 1960.

2 Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 256 с. – ISBN 5-279-02390-6. – С.144.



Nazariya nomlari	Mazmuni	Nazariyani ilgari surgan iqtisodchilar
Aylanmadan olinadigan yagona soliq nazariyasi	Yagona aksiz solig'i haqidagi ilk qarashlar	Merkantalistlar A. Monkreyten, T. Man, J. Kolber
Renta tavsifidagi yagona soliq nazariyasi	Yagona yer solig'i haqidagi ilk qarashlar	Fiziokrat F. Kene, G. Jorj
Kapitalga nisbatan yagona soliq nazariyasi	Mulkiy tavsifdagi real yagona soliq haqidagi qarashlar (Akkord soliqlari)	E. Jirarden
Daromadga yagona soliq nazariyasi	Daromaddan olinadigan yagona soliq haqidagi qarashlar	E. Seligman

1-rasm: Yagona soliq nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlar<sup>3</sup>

Shuni alohida ta'riflash lozimki, tarixiy retrospektivada, yagona soliq nazariyasi asosan yagona aksiz solig'i nazariyasi deb ataluvchi oborotdan olinadigan soliq mexanizmiga asoslanadi. Fiziokratlar esa yerdan sof daromad haqidagi qarashlariga asoslanib, yer rentasi yagona soliqning yagona obyektiv bo'lishi kerakligini ilgari surgan. Ushbu yagona soliq kadastr va yerning undumdorligi asosida aniqlanishi belgilangan. Fransua Kene yagona soliqning darajasi 2/7 nisbatgacha bo'lishini e'tirof etgan<sup>4</sup>.

Xususi soliq nazariyalarida yagona soliq nazariyasi soliqning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, soliqqa oid nazariyalar vositasida davlatning soliq tizimini qurish uchun mavjud bo'lgan turli modellar soliqlarni ma'lum maqsadlar doirasida e'tirof etilishi hamda tan olinishiga bevosita bog'liqdir.

Kolumbiya universiteti professori E. Seligman fikricha "Yagona soliq tizimi haqidagi ilmiy qarashlarida yaqin istiqbolda daromaddan olinadigan yagona soliq mexanizmi optimal soliqqa tortish tizimini o'zida mujasamlashtirishi bilan barcha soliqlarni o'rniga joriy etilishini e'tirof etib o'tadi"<sup>4</sup>.

Shu boisdan, "Obyektiv iqtisodiy kategoriya sifatida yagona soliq nazariyasi xususi soliq nazariyasi taraqqiyoti paradigmasidagi ilmiy qarashlar negizida shakllanib bordi. Yagona soliq nazariyasining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti tasdiqlaydiki, ushbu soliq mexanizmi turli iqtisodiy maktab namoyondalarining fundamental qarashlarining negizini tashkil qilgan. Zamonaviy sharoitlarda ushbu qarashlarga asoslangan holda daromaddan, kapitaldan olinadigan yagona soliq mexanizmi va, shuningdek, renta tavsifidagi yagona soliq mexanizmi rivojlanib borgan. XXI asrning dastlabki choragida "Moliya" fani taraqqiyotida "Xulq-atvor moliyasi"ning rivojlanish tendensiyasi raqamli iqtisodiyotga asoslangan makonga adekvat moliya tizimini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi"<sup>5</sup>.

Zamonaviy moliya tizimining hamma bo'g'inlari qatori soliq tizimidagi islohotlarda soliq ma'murchiligi elementlarini optimallashtirish hisobigagina emas, balki "Soliq to'lovchilarning xulq-atvori"ga asoslangan soliq mexanizmi shakllantirish zamonaviy iqtisodiy makonga xos soliq tizimini shakllantirish, soliq intizomini mustahkamlashning konstruktiv asosini tashkil qilishi kerakligi ishda asoslangan<sup>6</sup>. Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Soliq to'lovchilar soliq to'lashdan qochishi emas, balki soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak"<sup>7</sup> degan da'vatlari fikrimizning mantiqiy asosini tashkil qiladi.

Mazkur holatda soliq to'lovlarini minimallashtirish sifatida mavjud iqtisodiy dastaklardan (imtiyoz va preferentsiya) qonuniy ravishda foydalanish evaziga soliq to'lovlarini optimallashtirish nazarda tutilmoqda.

3 Muallif ishlanmasi.


4 Блауг М. Селигмен, Эдвин Роберт Андерсон // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикс, 2008. – 352 с. – С. 263-265.

5 Ричард Талер. Новая поведенческая экономика. Почему люди нарушают правила традиционной экономики и как на этом заработать = Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. – Эксмо, 2017. – 368 с.

6 O'sha manba.

7 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Shundan kelib chiqqan holda soliq to'lovchilarning soliq tizimiga oid xulq-atvor modeli 2-rasmga keltirib o'tilgan.



2-rasm: Soliqlik to'lovchilarni soliq tizimiga oid xulq-atvori modelining tashkiliy chizmasi<sup>8</sup>

Keltirilgan 2-rasmga muvofiq, xulq-atvor ikkita yo'nalishda tasniflanib, soliq to'lovlariga ko'ra soliq to'lovchilarning xulq-atvori to'rtta elementga asoslangan degradatsiyasi keltirilgan. 2, 3, 4 degradatsiyaga tushadigan soliq to'lovchilar kategoriyasi Qonun normalariga muvofiq xatti-harakatlariga ularni soliq qonunchiligiga muntazam rioya qiluvchi insofli soliq to'lovchilar guruhiga kirishi e'tirof etiladi.


Shuningdek, amaldagi soliq rejimiga asoslangan holda ishlab chiqarish omillarini qayta tizimlashtirish orqali soliqlarni rejalashtirish amaldagi instrument va usullar yordamida tashkil etiladi. Amaldagi soliq tizimini isloh qilish natijasida soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi talablariga rioya qilishini ta'minlovchi soliq mexanizmi instrumentlari va metodlarini joriy etish soliq to'lovchilar uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash o'rniga ularni to'lashdan manfaatdorligini ta'minlashning iqtisodiy asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda soddalashtirilgan tartib amal qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ushbu soliqqa tortish tartibi tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun joriy etilgan bo'lib, uning maqsadi soliq ma'murchiligini takomillashtirish, tadbirkorlar uchun soliqni hisoblash tizimini soddalashtirishni nazarda tutadi.

Soliq munosabatlarida soliq solishning maxsus rejimiga taalluqli bo'lgan ilmiy qarashlarni o'rganish va ilmiy abstraksiyalash natijasi asosida jarayonning yutuq va kamchiliklari, shu bilan birgalikda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonidagi mavjud bo'lgan risklar bo'yicha 3-rasmda batafsil bayon ettirilgan.

Soliq solishning maxsus rejimlari mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonidagi asosiy fiskal faktorlardan biri sifatida ayrim muammoli risklarni yuzaga keltiradi. Mazkur risklar 3-rasmda keltirib o'tilgan. Masalan, Rossiyalik iqtisodchi Aleksey Kudrinning fikricha "Rossiya soliq tizimida qo'llanilayotgan maxsus soliq rejimi mamlakatdan kapitalni tashqariga chiqib ketishini rag'batlantiruvchi asosiy ichki fiskal faktorlardan biri hisoblanadi<sup>9</sup>.

8 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

9 Кудрин А. Три задачи на два года // "Коммерсантъ" № 47 от 21.03.2018, стр. 1.



3-rasm: Soliq solishning alohida rejimining afzallik, kamchilik va risklari<sup>10</sup>

Shu bilan bir qatorda, yagona soliq nazariyasi haqidagi ilk qarashlarda ushbu soliq mexanizmining maqsadi kambag'allikka barham berish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining izchil taraqqiyotini ta'minlash orqali mamlakatdagi ishsizlik bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishga fiskal rag'bat<sup>11</sup> yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadlar negizida respublikamizda soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi tadbirkorlik subyektlarini aniqlash mezonlari bo'yicha yangi ish o'rinlarini yaratish kontekstida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Barchamizga ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibi ular faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, mamlakat soliq tizimidagi har bir soha uchun qo'llanilayotgan soliqlar o'ziga xos rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega. Masalan, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun aylanmadan olinadigan soliq joriy qilingan.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga kelib, insoniyat oldida cheklangan tabiiy boyliklardan o'z o'rnida tejamkorlik bilan foydalanish zarurati paydo bo'ldi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlar faoliyatiga ma'muriy yo'l bilan emas, balki iqtisodiy vositalar bilan ta'sir etish mumkin. Mamlakat soliq tizimida resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi soliq mexanizmi mavjud bo'lsa-da, bunday mexanizm soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilarga joriy etilmaydi, ya'ni ular barcha umumdavlat hamda mahalliy soliq va yig'imga o'rniga yuqorida qayd etilgan yagona soliq turlaridan birini to'laydilar, (bu qonun bilan belgilangan). Bunday sharoitda soliq solishning maxsus rejimi (tartibi) ga o'tgan soliq to'lovchilarning cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmi ishlamaydi. Umuman olganda mamlakat soliq tizimini takomillashtirishda soliqqa tortishning klassik

<sup>10</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>11</sup> Ефимова Л.А. Экономика общественного сектора. Нижний Новгород: НГУ, 2009.-115 с.





va zamonaviy nazariyalarini chuqur o'rgangan holda ularni soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, amaliyotga joriy qilish va bunda albatta cheklangan resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan mexanizm aks etishi kerak bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Кенэ Ф. Избранные экономические произведения. – М.: Соцэкгиз, 1960.
2. Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 256 с. – ISBN 5-279-02390-6. – С. 144.
3. Блауг М. Селигмен, Эдвин Роберт Андерсон // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикс, 2008. – 352 с. – С. 263-265.
4. Ричард Талер. Новая поведенческая экономика. Почему люди нарушают правила традиционной экономики и как на этом заработать = Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. – Эксмо, 2017. – 368 с.
5. Кудрин А. Три задачи на два года // "Коммерсантъ" № 47 от 21.03.2018, стр. 1.
6. Ефимова Л.А. Экономика общественного сектора. Нижний Новгород: НГУ, 2009.–115 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.